

YASHIL YECHIMLAR UCHUN YOSHLAR INNOVATSIYALARI

Ko'charova Madina Shaydulla qizi

O'zbekiston milliy unversiteti,

Ijtimoiy fanlar fakulteti amaliy siyosatshunoslik yo'nalishi

1-bosqich magistranti

+99893-353-40-08

kucharovamadina@gmail.com

Qarshiyev Nurmuhammad Olimjonovich

Ilmiy rahbar: O'zbekiston milliy unversiteti,

“Siyosatshunoslik”kafedrasи f,d (PhD) ,dots v.b.

+99890-975-90-70

nurmuxammad.qarshiyev@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10890886>

Annotatsiya: Hozirgi makon va zamonda ,ekologiyaga butun diqqat-e'tiborimizni qaratish muhim bir omillardan birini kasb etmoqda. Jahonda va bizning mamlakatimizda ekologik muammolarga yechim topa olish va atrof-muhitni yashilashtirish uchun bir qancha chora-tadbirlar olib borilayotganligiga alohida e'tibor berish mumkin. Ushbu maqola qanday qilib yoshlar o'z innovatsion idealarini hayotga tadbiq etishi va ularning yashil yechimlar sohasida o'zaro hamkorlik qilishi haqida bir qancha tushunchalar beradi.

Kalit so'zlar: YUNESKO, yashillashtirish, ekologiya, innovatsiya, yaratuvchanlik, kelajak, atrof-muhit, moliyalashtirish, proyekt.

Jahonda global ishlab chiqarish jarayonlarining kengayishi, nafaqat ekologiyaga, balki mamlakatlar ichidagi atmosferaga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Yashil yechimlar uchun yoshlar innovatsiyalari bugungi kunda eng muhim mavzularning biri bo'lib, bu yangi energiya va suv manbalari, ekologik toza yuqori texnologiyalar,energiya yetkazib beruvchi qurilmalar va boshqa yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Yoshlar, energiya samaradorligini oshirish, atrof-muhitni saqlash, tabiatni muhofaza qilish va yashil yechimlar sohasida yaratuvchanlikni rivojlantirishda katta rol o'yinaydi. Bu atrof-muhitni saqlash muammolari bilan kurashishda yoshlar yaratuvchanligi va innovatsiyani o'rganishda amalga oshirishda bir qancha ma'naviy va madaniy qobiliyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoni bilan O'zbekistonni 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Ushbu "O'zbekiston – 2030 strategiyasi" da ham aynan 100 ta maqsadning ichida ekologik muammoga urug'u berilgan:

Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasini kengaytirish;

Har yili 200 million tup daraxt ekib borish va respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, ekiladigan har bir daraxtni parvarish qilish va sug'orish tizimini yaratish;

1984 ta yashil bog'lar barpo etish, shu jumladan 112 ta yirik sanoat korxonasi tomonidan o'z va tutash hududlarida uch yil davomida 30 million tup ko'chatdan iborat "yashil belbog"lar barpo etish;

Barcha davlat idoralari, korxonalar, ta'lim muassasalari hududlarida "yashil bog'lari"ni tashkil etish.Toshkent shahrida yashil maydonlar hududini 5 barobar ko'paytirib, 5 ming getktarga yetkazish;

“Yashil makon” umummilliy loyihasi tashabbuslariga mos tarzda respublikaning 10 ta hududida aerobiologik monitoring tizimini yo’lga qo’yish. Shahar va tuman markazlarida har 50 — 100 ming aholi uchun “jamoat parklari”ni tashkil etish.[1]

Bunday proyektlarni amalga oshirishda, yashil yechimlar uchun yoshlar innovatsiyalari, yuqori sifatlari yechimlarni o’rganish va ularni ishbilarmonlikda rivojlantirishga yordam beradi. Bu innovatsiyalar global muammolar, ekologik muammolar va ijtimoiy muammolar bilan yuzmay yuz kelishga tayyorlikni oshirishda muhim rol o’ynaydi. Yoshlar uchun yashil yechimlar va innovatsiyalar, ekologik va ijtimoiy o’qitish platformalari va amalga oshirish imkoniyatlari yaratishda katta ahamiyatga ega bo’lgan tadbirkorlik tarmoqlari bo’lib, yuqori sifatlari yechimlarni yaratuvchanlikni rivojlantiradi va yangi yechimlarni ijro etishga intiladi. Jumladan, bunday loyhalarini rivojlantirish va molilashtirish uchun YUNESKO tashkilotining o’rni yashil yechimlar uchun yoshlarni qo’llashda juda muhimdir. YUNESKO dunyo targ’ibotida yashil yechimlarga ega bo’lgan zamonaviy ma’naviy va madaniy ,ilmiy ravishda faoliyat yuritadi. Ushbu tashkilot, yoshlar o’rtasida ma’naviy merosni saqlab qolish, ijodiy mehnatlar va texnologiyalarni ko’paytirish, ijtimoiy barqarorlik, ekologik taraqqiyot va inson huquqlarini himoya qilish borasida kuchli faoliyat yuritadi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, yashil yechimlar uchun yoshlar innovatsiyalari yuqori daraja ega bo’lgan muhim yondashuvlar va kelajakka muhim bir poydevor bo’la oladi. Buning uchun yoshlarni doimiy ravishda rag’batlantirib borib, ularning kreativ fikrlarini qo’llab quvvatlash darkor. Bunda YUNESKO va boshqa tashkilotlarning o’rni katta. Bu innovatsiyalar ijtimoiy,siyosiy, ekologik va iqtisodiy yo’nalishlarni o’z ichiga qamrab olgan holda faoliyat olib borilsa ,ma’lum bir maqsadga zamin yarata oladi. Negaki, “Kelajak –yoshlarning qo’lida “ degan aforizm bor, bu hikmatli so’zning zamirida yoshlar o’zlarining chiroyli yechimlar va yashil innovatsiyalar bilan kelajakda sodir bo’ladigan muammolarni prognoz qila olish, o’zlarining antikvar takliflarini keltirish muhim bir ahamiyatga egadir.

References:

1. <https://www.unesco.org/en/articles/financing-youth-innovation-green-solutions>
2. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>